

## SIYOSIY MATNLARNI O'RGANISHDA NUTQIY YONDASHUV

Yaxshiboyev Mirjalol  
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi.

**Annotation:** this article examined the discursive approach to the study of political texts - an important rule of modern political linguistics, as well as the relationship of each specific text with other texts within the current political situation.

**Keywords:** text, political text, speech, political communication, political linguistics.

**Annotatsiya:** v dannoy state byl izuchen diskursivnyy podxod k izucheniyu politicheskix tekstov - vajnoye pravilo sovremennoy politicheskoy lingvistiki, a takje sootnosheniye kajdogo konkretnogo teksta s drugimi tekstami v ramkax sozdavsheysya politicheskoy situatsii.

**Ключевые слова:** текст, политический текст, речь, политическая коммуникация, политическая лингвистика.

Matn – nutq ko‘rinishi bo‘lib, vazifasi jihatidan tugal nutqiy butunlikdir. Har bir matn murakkab tuzilish va mazmun mundarijasiga ega bo‘lib, u og‘zaki hamda yozma ijod namunasi hisoblanadi. Tilshunoslikda matn tilning alohida birligi va matn tilshunosligi deb atalayotgan sohaning asosiy obyekti sifatida talqin qilinadi. Matn so‘z birikmasi va gapdan farqlanadi, chunki matnning ham o‘z kategoriyasi va qonuniyatları mavjud. Matn so‘zining lug‘aviy ma’nosida birikish, bog‘lanish tushunchalarining borligi va matn tarkibi o‘zaro qaysidir bog‘lovchilar yordamida birikishni o‘rganish “Matn tilshunosligi” sohasining asosiy muammolaridan biridir.

Tilshunos E.Qilichev “Matnning lingvistik tahlili” nomli kitobida “Matn – hamma elementlari o‘zaro zinch aloqada bo‘lgan va muallif nuqtayi nazaridan ma’lum bir maqsadga yo‘naltirilgan nominativ-estetik axborotni ifodalovchi murakab tuzilma» [Qilichev E., 2000: 45] degan ta’rifni beradi. I.Rasulov esa matnni quyidagicha ta’riflaydi: “Gapdan katta birlik murakkab sintaktik butunlik bo‘lib, u fikran va sintaktik jihatdan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan gaplar birlashmasidan iborat. Unda fikr gapga nisbatan ancha to‘liq bo‘ladi” [Rasulov I., 2021: 45].

So‘nggi o‘n yilliklar mobaynida birmuncha istiqbolli ilmiy yo‘nalishlar aksariyat hollarda turli bilim sohalarining tutashuvi doirasida yuzaga kelgan. Shu kabi fanlardan biri, biz uchun yangi fan hisoblangan siyosiy lingvistika fani bo‘lib, etnologiya, ijtimoiy psixologiya, sotsiologiya va boshqa gumanitar fanlarga erishishni nazarda tutuvchi lingvistikaning siyosatshunoslik bilan kesishmasida vujudga kelgan. Yangi ilmiy yo‘nalishning vujudga kelish va rivojlanish zarurati jamiyatning siyosiy kommunikatsiyalar mexanizmlari va shartlariga qiziqishning ortib borishi bilan belgilanadi.

Siyosiy lingvistika til va jamiyatning o‘zaro bog‘liqligi muammolari bilan shug‘ullanuvchi sotsiolingvistika, matn lingvistikasi va kognitiv lingvistika, mumtoz va zamonaviy ritorika, funksional stilistika va ayniqsa publisistik uslubni tadqiq qilish kabi qator lingvistik yo‘nalishlar bilan chambarchas bog‘liq.

Zamonaviy tilshunoslikning ko‘p tarmoqlilik (turli fanlar metodologiyasini qo‘llash), antropotsentrizm (lisoniy holatlarni tadqiq qilish uchun hisoblash nuqtasiga aylangan lisoniy shaxs, inson), ekspansionizm (lingvistik izlanishlar sohasini kengaytirish tendensiyalari), funksionalizm (o‘z funksiyalarini amalga oshirishda tilning nutqdagi harakatlarini o‘rganish) va



eksplanatorlik (dallilarni shunchaki yoritishga urinish emas, balki ularga izoh berish) kabi jihatlari to‘laqonli ravishda siyosiy lingvistikaga xosdir.

Siyosiy lingvistika individual, sotsiumga doir va milliy tafakkurni o‘rganuvchi ijtimoiy psixologiya, madaniyatshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik va etnologiya kabi fanlar bilan chambarchas bog‘liq.

Siyosiy lingvistikaning siyosiy kommunikatsiya, ya’ni nutqiy faoliyat, jamiyatdagi fikrlar rang-barangligi sharoitida ijtimoiy-siyosiy qarorlar qabul qilish va ularni asoslash, mamlakat fuqarolariga hissiy ta’sir o‘tkazish orqali ijtimoiy hamjihatlikka erishish uchun ularni siyosiy harakatlarga undash kabi muayyan g‘oyalarni targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan nutqiy faoliyatdir. Har bir inson hech bo‘lmasa gohida gazeta o‘qiydi, radio tinglaydi yoki televizor ko‘radi, va shu tariqa siyosiy kommunikatsiya ishtirokchisiga aylanadi. Qachonki ushbu inson saylovga borsa, u siyosiy hayotda ishtirok etadi va u buni siyosiy kommunikatsiyalar subyektlari ta’sirida amalga oshiradi. Va shunda siyosiy lingvistika manfaatlari sohasi sirasiga nafaqat siyosiy ma’lumotlarni uzatishni, balki kommunikativ faoliyat jarayonidagi siyosiy voqe’likni idrok etish va uni baholash bilan bog‘liq bo‘lgan barcha narsalarni kiritish mumkin.

Siyosiy kommunikatsiyaning asosiy vazifasi - kommunikativ faoliyatni qo‘llash asosida siyosiy hokimiyat uchun kurashishdan iborat: siyosiy kommunikatsiya hokimiyatni (saylovlar, tayinlashlar, ijtimoiy fikrni yaratish va h.k. yo‘llar orqali) taqsimlashga hamda uni qo‘llash (qonunlar qabul qilish, farmonlar va farmoyishlar chiqarish)ga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatishga undaydi. Siyosiy kommunikatsiya mavjud siyosiy voqe’likni aks ettirgan holda, u bilan birga o‘zgaradi va unda kechayotgan islohotlarda ishtirok etadi.

Siyosiy kommunikatsiyaning asosiy maqsadi – siyosiy faoliyatning maqbul strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish uchun sharoit yaratuvchi jamiyatning siyosiy holati va siyosiy faoliyati subyektlari, kommunikatsiya, mushohada va til o‘rtasidagi xilma-xil o‘zaro munosabatlarni tadqiq qilishdan iborat.

Siyosiy kommunikatsiya siyosiy qarorlar qabul qiluvchi insonlar ongiga ta’sir o‘tkazuvchi vosita sifatida xizmat qilishi sharofati tufayli hokimiyatdan foydalanish va uni taqsimlashga ta’sir ko‘rsatadi. Siyosiy kommunikatsiya nafaqat axborotni uzatadi, balki qabul qiluvchiga hissiy ta’sir ko‘rsatgan holda, inson ongida mavjud bo‘lgan olamning siyosiy manzarasini o‘zgartiradi [Chudinov A., 2001: 17].

Zamonaviy siyosiy lingvistika siyosiy kommunikatsiyaning umumiyligi muammolari bilan faol shug‘ullanadi (uning boshqa sohalardagi kommunikatsiyalar bilan farqini tahlil qiladi), siyosiy nutq (shior, dastur, gazeta maqolasi, mitinglarda so‘zga chiqish, parlamentdagi munozaralar) janrlari muammolarini hamda siyosiy matnlar funksiyalari xususiyatlarini o‘rganadi. Bizning ilmu-fanimiz ayrim siyosatchilar, siyosiy partiyalar va yo‘nalishlarning idiotillari muammolariga faol murojaat qiladi, siyosiy kommunikatsiyalar taktikalari, strategiyalari va usullarini o‘rganib chiqadi, siyosiy matnlar kompozitsiyasi, leksikasi va frazeologiyasini hamda ularda keng turli obrazli vositalarning qo‘llanishini o‘rganadi. Shuningdek, jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida turli mamlakatlardagi siyosiy kommunikatsiyaning qiyosiy tadqiqoti boshqa davlatlar fuqarolari tomonidan muayyan davlatlarning siyosiy voqe’liklarini anglab yetish muammolariga murojaati, tegishli til va milliy madaniyat doirasidagi alohida siyosiy konseplarni o‘rganish siyosiy lingvistikaning muhim yo‘nalishlari sirasiga kiradi.

Siyosiy matnlarni o‘rganishda nutqiy yondashuv - zamonaviy siyosiy lingvistikaning muhim qoidasidir. Bu esa ushbu matnning turli insonlar tomonidan idrok etilishi spetsifikasi, muallifning

siyosiy qarashlari va shaxsiy fazilatlarini hisobga oлган holda, u yaratilgan siyosiy vaziyat doirasida har bir aniq matnning boshqa matnlar bilan nisbati o‘rganib chiqilishini anglatadi. Ushbu matning siyosiy matnlar tizimidagi roli va – keyinroq - mamlakat siyosiy hayotida o‘ynashi mumkin bo‘lgan muhim roli albatta hisobga olinadi. Jumladan, bir xil g‘oyalar va bir xil mulohazalar gazeta maqolasidagi jurnalist matnida va prezidentlar rasmiy bayonotida mutlaqo turlicha idrok etiladi. Birgina siyosatchining ular muhim davlat vazifasiga belgilanishida saylovoldi kurashida so‘zlagan nutqi va mulohazasi mutlaqo turlicha salmoqqa ega bo‘lishi mumkin [Chudinov A., 2003: 37].

An’anaga ko‘ra hokimiyat yuksak qadriyatlar sirasiga kiradi, binobarin hokimiyat uchun kurashda barcha insoniy imkoniyatlar va fan yutuqlaridan foydalaniladi. Siyosiy matnlar mualliflari zaruriy natijaga erishish uchun ulkan kuch sarflaydi. Shu sababli siyosiy kommunikatsiyani tahlil qilishda mualliflarning yuksak mahorati va ijodiy no‘noqligi, ularning kommunikativ muvaffaqiyatlari va muvaffaqiyatsizliklari ayniqsa seziladi.

Sotsiolingvistika manfaatlari sohasiga mansub bo‘lgan davlatning til siyosati sohasi tadqiqotlarida siyosiy kommunikatsiyani o‘rganishga yo‘naltirilgan siyosiy lingvistikani farqlay bilish zarur. Muammoni birinchi soddalashitrgan holda, aytish joizki, siyosiy lingvistika bo‘yicha mutaxassislarni siyosatchilarining bu borada qanday fikr bildirayotganliklari qiziqtirsa, til siyosati bo‘yicha mutaxassislarni esa tildan samarali foydalanish uchun siyosatchilarining nima bilan shug‘ullanayotgani qiziqtiradi. Shu sababli mamlakatdagi (davlat tilining rasman tan olinishining zarurligi to‘g‘risidagi masaladan boshlab) davlat tili va boshqa tillarning xizmat qilishi muammolari tahlili kabi ishlarning g‘oyat muhim yo‘nalishini, millatlararo tillar muammolari va xalqaro muloqot tillari, tillarni o‘zlashtirish borasidagi masalalar siyosiy lingvistika manfaatlari sohasiga taalluqli emas.

Demokratik jamiyatda barcha fuqarolar nutqni ishlab chiqish sohasidagi kabi, uni qabul qilish sohasida ham siyosiy kommunikatsiyalarning barqaror ko‘nikmalariga ega bo‘lmog‘i zarur. Zamonaviy siyosiy kommunikatsiyalarning tanqidiy tahlili yangi avlod siyosiy yetakchilari va jurnalistlarini kommunikativ amaliyotini yanada uyg‘unlashtirishiga yordam qiladi. Jahon siyosiy kommunikatsiyalarini o‘rganishda, jahon andozalarini qo‘llash xorijiy jaomatchilik tasavvurida ijobjiy nufuzini shakllantirishga ko‘maklashadi [Chomsky N., 2017: 38].

Siyosiy lingvistika yo‘nalishi keyingi o‘n yilliklari davomida birmuncha muvaffaqiyatga erishdi. Ushbu sohaning zamonaviy holatiga xos bo‘lgan jihatlaridan biri, uning xorijiy tadqiqotlar bilan yaqinlashuvi va tadqiqot sohasining sezilarli ravishda kengayishidir.

Siyosiy lingvistika – bu ulkan tatbiqiy ahamiyat kasb etuvchi ilmiy yo‘nalishdir. Siyosiy sohadagi kommunikativ faoliyat tajribasini o‘rganish tilshunoslar, siyosatshunoslar, jurnalistlar va jamoatchilik bilan aloqalar bo‘yicha mutaxassislar uchun aniq tavsiyalarni ishlab chiqishga mezon yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chomsky N. Language and Politics. Montreal and New York, 2017. – B. 200.
2. Qilichev E. Matnning lingvistik tahlili. Buxoro, 2000. – B. 200.
3. Rasulov I. Eksperimental psixologiya va praktikum. Toshkent, 2021. – B. 147.
4. Chudinov A.P. Metaforicheskaya mozaika v sovremennoy politicheskoy kommunikatsii. Yekaterinburg, 2003. – B. 200.
5. Chudinov A.P. Rossiya v metaforicheskem zerkale: kognitivnoye issledovaniye politicheskoy metaforы (1991—2000). Yekaterinburg, 2001. – B. 270.